

66.3 (5y₃)

M70

И
✓

MILLIY
ISTIQLOL G'UYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

"O'ZBEKISTON"

66.3 (5 y₃)
M 70

MILLIY
ISTIQLOL G'UYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

Nizomiy n. raq. 10 TDPU
KUTUBXONASI

009914/6
Ўзбекистон Республикасида
Қўш, Ўзбекистон

TOSHKENT - "O'ZBEKISTON" - 2001

66.3 (5U)
M50

ISBN 5-640-02889-0

$\frac{0301020000-14}{M 351 (04) 2001}$ 2001

© "O'ZBEKISTON" nashriyoti, 2001 y.

“Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma’noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo‘lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko‘tarishning ahamiyati beqiyosdir”.

Islom KARIMOV



SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma‘naviy-mafkuraviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Mustaqil taraqqiyot yillarida to‘plangan tajriba, dunyo jamoatchiligi o‘zbek modeli deya e‘tirof etgan o‘zimizga xos va o‘zimizga mos taraqqiyot yo‘li —kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o‘zgarish va yangilanishlar yurtdoshlarimiz qalbi, ongi va shuuriga ulkan ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Oldimizga qo‘ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda.

O‘zining hayotini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o‘z kelajagi haqida qayg‘uradigan millat hech bir davrda milliy g‘oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay

olmaydi. Mafkura bo'lmasa, har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar.

Milliy mafkura xalqning maqsad-muddaolarini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aql-zakovat, iymone'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Istiqloq mafkurasi ko'pmillatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Milliy g'oya va istiqloq mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi.

Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonche'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analarimizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish — milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

Shu bilan birga, men milliy istiqlol g‘oyasi bugungi tez sur‘atlar bilan o‘zgarayotgan tahlikali dunyoda o‘zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boyligni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog‘i zarur, deb bilaman.

Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog‘bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo‘l bilan amalga oshirish lozim.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informatsion inqilob, globallashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta’sir o‘tkazish maqsadida bo‘lib olishga

intilish, bu maydonlardagi o‘zaro kurash sharoitida mafkuraviy siyosatning ahamiyati va o‘rni naqadar ortib borayotganini tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. Sobiq ittifoq hududidagi bugungi mafkuraviy vaziyat, bu sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasidagi ahvol, begona mafkura va g‘oyalarning O‘zbekiston va qo‘shni davlatlarga xuruji, eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliqni yangi — milliy g‘oya, istiqlol mafkurasi bilan to‘ldirishning zarurati barchamizga ayon bo‘lishi darkor.

Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi yurtimizda yashayotgan barcha kishilarning ma’naviy boyligiga, dunyo-qarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir.

Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g‘oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma’naviy-ma’rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishlari zarur. Ma’rifatparvar shoirlarimizdan birining so‘zlarini bir oz o‘zgartirib aytadigan bo‘lsak, bu borada barchamiz uchun fikrlash va ishlash zamoni keldi.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

I. MILLIY G' OYA VA MAFKURALAR TARIXIDAN

1. G' oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati

Insoniyat tarixi — g' oylar tarixidir.

G' oya — inson tafakkuri mahsuli, milliy g' oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g' oya — inson va jamiyat hayotiga ma' no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o' zida mujassam etadigan g' oylar tizimidir.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g' oya bo' la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr — o' ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa — voqelikka nisbatan o' zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G' oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug' ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Muayyan bir g' oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo' ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo' lgani, jamiyatning taraqqiyot yo' lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Masalan, oʻrta asrlarda jaholat va inkvizitsiya shaxsning orzu-intilishlari, erkinligi va tashabbuskorligi yoʻlida toʻsiq boʻlib turgan paytda polyak olimi Nikolo Kopernik Yerning Quyosh atrofida aylanishiga doir geliotsentrizm nazariyasini olgʻa surdi. Bu gʻoya ham, avvalo, bir jasoratli shaxs qalbidagi intilishlar ifodasi sifatida paydo boʻlgan, keyinchalik esa butun dunyoda eʼtirof etilib, ilmiy tafakkurning tarkibiy qismiga aylangan.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan taʼsir koʻrsatgan nazariya, taʼlimot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, isteʼdod va teran tafakkur egalari mislsiz zahmat chekkanini koʻramiz. Sokrat va Platon, Konfutsiy va Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdigʻidir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch — bunyodkorlik va buzgʻunchilik gʻoyalari hamisha oʻzaro kurashadi. Bunyodkor gʻoya insonni ulugʻlaydi, uning ruhiga qanot bagʻishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu gʻoyalar asos boʻlgan.

Buzgʻunchi gʻoyalar esa xalqlar boshiga soʻngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan koʻplab misollar keltirish mumkin. Oʻrta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm

va bolshevizmga asos bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.

Yovuz g'oya va mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakli aqidaparastlikdir. Bunday mafkuralar muayyan davrlarda G'arbda ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan. Bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga qadam qo'yayotgan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda.

Aqidaparastlik, qanday shaklda bo'lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarlidir.

O'rta asrlarda G'arbdagi aqidaparastlik mafkurasi bo'lgan inkvizitsiya cherkovning mutlaq hukmronligini o'rnatib, hur fikr rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Galiley va Kopernik kabi yuzlab buyuk aql-zakovat sohiblari ana shunday aqidaparastlik ta'qibiga uchraganlar, Jordano Bruno ilmiy qarashlari uchun jaholat qurboni bo'lgan.

Sharqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalar ham turli tazyiqlarga duchor bo'lganlar. Mansur Halloj, Nasimiy, Boborahim Mashrab singari hur fikrli zotlar esa qatl etilgan.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi. Buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo'lib qolaveradi.

2. Tarixiy shakllari va ko‘rinishlari

Insoniyat tarixi turli g‘oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma’rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo‘lganidan dalolat beradi. Ularning afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik, ilohiy qadriyatlar majmuasi bo‘lgan diniy, olamga ilmiy yondashuv asosida vujudga kelgan dunyoviy ko‘rinishlari mavjud.

Ibtidoiy hayot davrida mifologiyaga asoslangan diniy-ilohiy qarashlar asosidagi totemizm, animizm, fetishizm kabi g‘oyaviy tizimlar — mafkura shakllari bo‘lgan. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi hinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar esa o‘zlarining milliy dini — sintoizmni yaratgan.

Rim imperiyasi shakllangan dastlabki davrda xristianlik dini asta-sekin uning mafkurasiga aylandi.

Olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarni falsafiy talqin etish natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga keldi.

Monizm — olamning asosi bitta deya ta’lim beruvchi yo‘nalish.

Dualizm — olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e’tirof etuvchi oqim.

Plyuralizm — olamning asosida ko‘p narsalar yotishi haqidagi g‘oyalarni ilgari suruvchi ta’limot.

Idealizm — olam va odamning yaralishi, borliqning yashashi va rivojlanish xususiyatlari, borliq hamda yo‘qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirishdir.

Materializm — aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirishdir.

Muayyan tarixiy davrlarda milliy asosdagi diniy mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko‘tarilgan. Zamonlar o‘tishi bilan ularning ayrimlari o‘z mavqeiini yo‘qotgan, lekin millat ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan.

Ammo idealizm va materializm o‘rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi dualizm g‘oyalari qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda.

Xudo va ilohiy qadriyatlarni mutlaq rad etuvchi ateizm va aynan ana shu haqiqatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o‘rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega.

XIX asr boshlarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga sig‘inishni boshlab bergan uning ofitseri Shoven nomi bilan bog‘liq shovinizm g‘oyalari paydo bo‘ldi. Keyinchalik u muayyan shaxs yoki millatni boshqalardan ustun qo‘yadigan, uni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidaga aylandi.

Hozirgi davrda ham vatansizlik g‘oyasi — kosmopolitizm, hamma narsani inkor etishga,

hech qanday ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da'vat etuvchi nigilizm kabi ko'p-ko'p mafkuralar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqida-parastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan.

Xullas, inson va jamiyat bor ekan, ezgu g'oyalarning ziddi bo'lgan zulm va zo'rvonlik, qabohat va jaholat yangi-yangi shakllarda namoyon bo'lishga urinadi. Lekin ular odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalari tayanib, oliy maqsadlar sari intilishini aslo to'xtata olmaydi.

3. Xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri

Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga yetaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g'oyalar ta'sir o'tkazib kelgan.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning

salohiyat va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi "milliy davlatchilik tizimi" (kokutay), "fuqarolik burchi", "yapon ruhi", "tadbirkorlik", "umummilliylik", "fidoiylik", "vatanparvarlik", "paternalizm", "jamoaga sadoqat", "modernizatsiya" kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarga poydevor bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

G'oya va mafkura gumanizm va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini o'zida aks ettirmasa, aksincha, bu intilishlarni rad etsa, mohiyatiga ko'ra ularga zid bo'lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi.

Ana shunday mafkuralardan biri — hokimiyatni qurol kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasidir. Dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida hukm surgan bu mafkura o'zining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zan buzg'unchi mafkura o'zining soxta jozibasini, aldov

va makr bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqeni egallab olishi ham mumkin. Masalan, XX asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar va gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib bormoqda.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi — tarixning o'zgarmas qonuniyatidir.

4. Falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari

Mafkuralar ma'no-mohiyatiga ko'ra falsafiy, dunyoviy, diniy ta'limotlar asosida yaratiladi. Turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga diniy oqimlar, falsafiy maktablar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Mafkuraning **falsafiy ildizlari** haqida fikr yuritganda, uning barcha ilmlarning otasi bo'lgan falsafa fani xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga Uyg'onish davri va O'rta asrlarda milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining har biri o'ziga xos mafkurasini yaratganini misol keltirish mumkin. Mazkur mafkuralar Rim

imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Kant, Gegel, Nitsche kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan.

Mafkuraning **dunyoviy ildizlari** ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Bunday jamiyat mafkurasi "Dunyoviylik —dahriylik emas" degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

Mafkuraning **diniy ildizlari** deganda u inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois

uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni ko'pgina mafkuralarda "Zabur", "Tavrot", "Injil", "Qur'on" kabi ilohiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo'lini asoslab bergan Konfutsiy va Lao Szining ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu ta'limotlar asrlar mobaynida mamlakatning milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi.

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo'lgan ekzistensializm kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, bir tomondan, inson aql-

idrokining imkoniyatlariga, kelajakka ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Hirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

5. Fikrlar va qarashlar rang-barangligi

Plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi ma'rifiy jamiyatgagina xos bo'lib, muayyan haqiqatni turlicha izohlash, tushunish va talqin etish tamoyiliga asoslanadi. Mana shunday tamoyil ustuvor bo'lgan shart-sharoitni e'tirof etadigan va o'z g'oyalarni shu mezonlar asosida rivojlantiradigan mafkura ilg'or, kuchli va hayotbaxsh bo'ladi. Bunday mafkura hech qachon erkin fikrga to'sqinlik qilmaydi. Yolg'on va g'ayriinsoniy g'oyalar asosida shakllangan mafkura esa o'zining soxtaligi oshkor bo'lib qolmasligi uchun bunga yo'l qo'ymaydi.

Yakkahokimlikka intilgan, mutlaq haqiqatni da'vo qiladigan mafkuraning istiqboli yo'q. Chunki u yakkahukmronlik o'rnatish barobarida o'zini boyitib boradigan manba — fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligidan uzilib qoladi. Sobiq ittifoq davrida yetmish yildan ziyod yakka hukmronlik qilgan kommunistik mafkuraning tanazzuli buning yaqqol dalilidir.

Muayyan guruh yoki siyosiy partiya g'oyalari hukmron mafkuraga aylansa, hur fikrlilik, vijdon erkinligi va qarashlar xilma-xilligi cheklanadi, mutlaq haqiqatga egalik da'vosi, mustabidlik tamoyillari kuchayadi.

Plyuralizm tamoyili erkin saylovlar, erkin matbuot singari demokratiyaning asosiy shartlaridan biridir. Ko'p yillik demokratik tajribalarga ega bo'lgan ilg'or mamlakatlarda bu tamoyil jamiyat hayotidan chuqur o'rin olib, taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, o'z erkin fikrini ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o'zining aniq-ravshan, asosli qarashlariga ega bo'lishi, o'z nuqtai nazarining oqibati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, bahs-munozara madaniyati talablariga amal qilishi lozim. Ya'ni, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlarga, qonun normalariga, axloqiy mezonlarga zid bo'lmasligi zarur.

6. Insoniyat tarixida mafkuradan ko'zlangan maqsadlar

Jamiyat taraqqiyotida turli maqsad va muddaolar xilma-xil mafkuraviy vositalar bilan amalga oshiriladi.

Insonlar, xalqlar va jamiyatlar hayotida tanlangan g'oyaviy yo'nalish, milliy mafkura

muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Har qanday mafkura quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

- muayyan g'oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar etish;
- ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
- g'oyaviy tarbiyalash;
- g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturi bo'lish.

Mafkura o'z oldiga qo'yilgan shu kabi maqsadlarni bajara olsagina, amaliy samara berishi mumkin.

II. HOZIRGI ZAMONDA INSON QALBI VA ONGI UCHUN KURASH

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi

Hozirgi davr — dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir.

Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g‘oyalari ustuvordir.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunistik, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Yigirmanchi asr so‘ngida ro‘y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g‘oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarning asosiy maqsadiga aylanmoqda.

2. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi

Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lmagan odam goh oshkora, goh pinhona ko'rinishda namoyon bo'layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Yaponiyada paydo bo'lgan "AUM Sinrikyo" kabi zararli oqimlar turli mamlakatlardagi minglab yosh yigit-qizlarni irodasidan, ong-shuuridan mahrum qilib, zombiga aylantirib qo'ygani bu fikrning dalilidir.

Keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining hozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi ekanini ham unutmashlik darkor.

3. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat

Geopolitik maqsadlar — muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosatni ifodalaydi. Bugungi kunda xalqaro maydonda turli shakllarda namoyon bo'layotgan bunday maqsadlar mafkuraviy siyosat bilan qo'shib bormoqda. Inson qalbi va ongi uchun kurash — bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Jahon hamjamiyati xalqaro munosabatlar sohasida demokratiya, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini qaror toptirish uchun kurashmoqda. Bunday sharoitda zo'rvonlik qilish, harbiy kuch ishlatish va hatto iqtisodiy iskanjaga olish qat'iy qoralanishi aniq. Lekin o'z g'arazli maqsadlariga yetishni ko'zlayotgan turli kuchlar geopolitikaning eng ta'sirchan vositasi sifatida mafkuraviy quroldan keng foydalanmoqda, odamlar ongiga ta'sir o'tkazishning tuban va makkor usullarini qo'llamoqda.

4. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar

Hozirgi davrda xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etish va pirovard natijada butkul qaram qilib olishga qaratilgan intilishlar kuchayib bormoqda. Bu —katta-katta hududlarni, ayniqsa, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan mintaqalarga o'z ta'sirini o'tkazishning eng qulay usulidir. Bu — zamonaviy qurol-aslaha kuchi bilan hal etib bo'lmaydigan muammoni sirdan qaraganda o'ta beziyon bo'lib tuyuladigan mafkuraviy usullar orqali yechish yo'lidir.

Bugungi kunda quyidagi ijtimoiy-tarixiy omillar asosida dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralar mavjud:

- buyuk davlatchilik gegemonizmi asosida;
- diniy mansublik asosida;
- etnik birlik asosida;
- sobiq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlik asosida va hokazo.

Jahonni mafkuraviy jihatdan bo'lib olish uchun tinimsiz harakat olib borilayotgan bunday paytda faqat kuchli milliy mafkuragina jamiyatni ana shu tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

Bugungi kun voqeligidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri ana shundan iborat.

5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'yi bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geopolitik yondashuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakablashib bormoqda.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan va o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan mintaqada davlatlarida tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va davlatchilik an'analarini tiklashdek muhim jarayon kechmoqda.

Jahondagi ma'lum bir siyosiy-mafkuraviy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlarini doirasiga tortishga intilmoqda. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllarini qo'llamoqda.

Mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda.

O'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy jihatdan ta'minlanayotgan aqidaparast mafkuralar bugungi kunda mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi.

Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy sivil-

zatsiyadan uzilib qolgan Afg‘oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yarog‘ va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi o‘chog‘i bo‘lib qoldi. Bu esa turli zararli g‘oyalarning terrorchilik, tahdid va tahlika yo‘li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug‘dirmoqda.

Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo‘lgan ishonch-e‘tiqodni mustahkamlash yo‘lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo‘lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruratga aylanib qoldi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston tomonidan olg‘a surilgan “Turkiston — umumiy uyimiz” g‘oyasi, Afg‘onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo‘l bilan hal etishga qaratilgan “6+2” guruhi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, Terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa’y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

III. O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI VA MAFKURAVIY MUAMMOLAR

1. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?

Shakllanayotgan milliy istiqlol mafkurasi millatimizning asriy an‘ana va urf-odatlarini, o‘zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassamlashtirib, jamiyatimiz, mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan aks ettirmog‘i zarur. Toki har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa olsin.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning asarlarida, xususan, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” kitobida bu masalalar chuqur ilmiy asosda, atroflicha yoritilgan.

Bizning bosh strategik maqsadimiz — bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta‘minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu — xalqimizning asriy an‘analariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga,

milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, rivojlangan davlatlarning tajribalaridan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmasdan, o‘zimizga xos va o‘zimizga mos rivojlanish yo‘lini izchil davom ettirish demakdir.

Ushbu strategik maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor bo‘lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Siyosiy sohada:

Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta‘minlash — mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishidir.

Birinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish.

Bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta‘minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish.

Ikkinchidan, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma‘nodagi ko‘ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish.

Uchinchidan, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun yanada kengroq

shart-sharoit yaratish, hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Bu — mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning subyektiv xohish-irodasiga qaram bo'lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatning olg'a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

To'rtinchidan, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeini oshirishni ko'zda tutadigan "**Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari**" konsepsiyasini hayotga joriy qilish.

Bu — odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi demakdir.

Beshinchidan, davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga

oshiradigan iste'dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish.

Bu — hech qaysi zamonda osonlikcha hal bo'lmaydigan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi o'zgarishini taqozo etadigan, odatda subyektivizm, manfaatparastlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik kabi ko'p-ko'p illatlarni bartaraf etish, jamiyatni tubdan yangilashni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Iqtisodiy sohada:

Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish — bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir.

Birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa — eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini — funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

Bu — xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va

kafolatlarni yaratish, institutsional o'zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratish demakdir.

Ikkinchidan, xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqlarning asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarni jalb etish.

Bu — xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz ortib boradigan ko'pukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyatda mulkdorlarning ko'pchilikni tashkil etishiga erishish orqali ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni kafolatlash demakdir.

Uchinchidan, iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish.

Bu — salohiyatli xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilish, ular bilan birga zamonaviy, xalqimiz ehtiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish demakdir.

To'rtinchidan, mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish.

Bu — Vatanimizning dunyo bozoridagi o'rni va nufuzini, fuqarolarimizning o'z yurti iqtisodiy

salohiyati va qudrati bilan faxrlanish tuygʻusini yuksaltirish demakdir.

Beshinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish.

Bu — boy tabiiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatimizdan toʻliq va samarali foydalanish, iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni oʻz ichiga oladigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, mineral va qishloq xoʻjaligi xom ashyosini sifatli qayta ishlaydigan quvvatlar yetakchi oʻrin tutishini taʼminlash, xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi oʻrnini kuchaytirish, qishloqda yangi ish oʻrinlarini yaratish demakdir.

Ijtimoiy sohada:

Jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub oʻzgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor boʻlib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri boʻlib qolaveradi.

Birinchidan, xalq moddiy farovonligini bosqichma-bosqich va izchil oshirib borishni taʼminlash, yurtdoshlarimizning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo, uning yordamga muhtoj qatlamlari — bolalar, qariyalar, nogironlar, oʻquvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yoʻnaltirilgan mexanizmini yanada takomillashtirish.

Ikkinchidan, xalqimiz uchun muqaddas qoʻrgʻon, maʼnaviyat beshigi boʻlgan oila, onalar

va ayollarimizning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish.

Uchinchidan, fuqarolarning huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini yanada samarali kafolatlovchi davlat tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish.

To‘rtinchidan, kelajagi buyuk davlatni sog‘lom mafkurali, ma‘naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi ishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish.

Ma‘naviy sohada:

Ma‘naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqloq mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik — bu boradagi asosiy vazifalarimizdir.

Birinchidan, yurtdoshlarimizni ma‘naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Ularning kuch va salohiyatlarini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish.

Bu — ma‘naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo‘lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g‘oyalari asosida rivojlantirish demakdir.

Ikkinchidan, turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi — barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish.

Bu — ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

Uchinchidan, ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Toki, bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

Shu ma'noda, buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshbandning “Diling — Allohda, qo'ling — mehnatda bo'lsin” degan hikmati biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

Bu — davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq ekanini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish demakdir.

Beshinchidan, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili,

madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish.

Bu — ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, "Shu aziz Vatan — barchamizniki" g'oyasining amalga oshishini ta'minlash demakdir.

2. Taraqqiyotning o'zbek modeli

O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi.

O'zbekiston — o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l — jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion — tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi mashhur besh tamoyili vujudga keldi:

Birinchi tamoyil. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim.

Ikkinchi tamoyil. Davlat — bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

Uchinchi tamoyil. Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishi lozim.

To'rtinchi tamoyil. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Beshinchi tamoyil. Bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy

barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

3. O'zbekistonning jahondagi o'рни va nufuzi

O'zbekiston tarixan Buyuk ipak yo'li kabi qadimiy savdo yo'llari tutashgan, qizg'in tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan hudud — O'rta Osiyo-ning markazida joylashgan. Ana shu qulay jug'rofiy o'rin — uning bugungi kunda ham uzoq-yaqin mamlakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi ko'priklar bo'lib kelayotgani xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizga nisbatan aytilgan "Sharq darvozasi" degan ta'rif bu haqiqatning yorqin tasdig'idir.

Mamlakatning jahondagi nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, dunyo sivilizatsiyasi, fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, ayni vaqtda, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga nechog'liq amal qilishi, xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi.

Dunyo hamjamiyatidan o'ziga xos o'rin egallab borayotgan O'zbekiston o'z ichki va tashqi siyosatida ana shu mezonlarga tayanadi.

Mamlakatimizning ichki siyosati “Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug‘” degan tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti yaratib berish, uning haq-huquq va erkinliklarini kafolatlash, ozchilikning ko‘pchilik irodasiga bo‘ysunishi, shu bilan birga, ozchilik fikrining ham ko‘pchilik tomonidan hurmat etilishi kabi demokratik qoidalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me‘yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, uni yadro qurolidan xoli makonga aylantirish, mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish, xalqaro terrorchilik va aqidaparastlikka qarshi kurash mamlakatimizning jahondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

4. Mafkuraviy muammolar: g‘oyaviy bo‘shliq va zararli g‘oyalarning jamiyatimizga ta’siri

Tarixiy qonuniyat shundan dalolat beradiki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish davrida, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo‘lgani singari, g‘oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati yuzaga keladi.

O'zbekiston o'z ozodligini qo'lga kiritgach, mohiyatan xalqimizning tabiatiga, dunyoqarashiga yot bo'lgan kommunistik mafkuraga barham berildi. Ma'lumki, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g'oya, ilg'or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi. Bu zarurat teran anglab yetilmagan holda esa g'oyaviy vakuum — bo'shliq yuzaga keladi. Lekin tabiatda vakuum — bo'shliq bo'lmagani kabi, mafkura sohasida ham bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bunday holatning oldini olish uchun mamlakatomizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Lekin ijtimoiy ong va tafakkur tezda o'zgarib, yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi.

Aynan mana shunday sharoitda xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yot va begona bo'lgan g'oyalar jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilishi muqarrar. Ayniqsa, g'oyaviy beqarorlik hukmron bo'lgan joyda mafkuraviy tahdid kuchayadi. Aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning ongini egallashga urinishlar ortib boradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta mablag' va ta'sir kuchiga ega bo'lgan ba'zi markazlar ana shunday vaziyatdan foydalanib, o'z yovuz niyatlariga erishmoq uchun urinmoqda.

Bu kuchlarning mamlakatomizga ko'z olaytirishi, bizga o'z hukmini o'tkazishga intilishining sababi — yurtimizning geopolitik nuqtai nazardan

g'oyat qulay hududda joylashgani, intellektual salohiyat va tabiiy zaxiralarga boyligidir.

1980 yillarning oxirlaridan boshlab mamlakatimizga kirib kelgan vahhobiylik, "Hizbut tahrir" kabi zararli oqimlar, turli sektalar dinning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni yo'ldan ozdira boshladi. Ular xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimizning ko'ngli ochiq, soddadil, ishonuvchan, andishali, qalbida kattalarga hurmat, diniy qadriyatlarga intilish tuyg'usi kuchli ekanidan foydalanmoqda.

Shu bilan birga, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada yetarli ish olib bormagani, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolgani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy yechimini topmagani, bu sohada odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga qurbi yetadigan shaxslar, diniy ulamolarning yetarli emasligi ham bunga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy tahdidlar quyidagilardan iborat:

— islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;

— yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi;

— tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;

— axloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar;

— turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

Bu tahdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o‘z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum qilishga, pirovard natijada yurtimizni o‘ziga qaram qilib olishga qaratilgan zamonaviy tajovuzkorlikning mafkuraviy bir shaklidir.

Xalqimizni turli g‘oyaviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘zida chuqur aks ettiradigan sog‘lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur.

Har qanday jamiyat, davlat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotda o‘zining aniq yo‘li, rivojlanish tamoyillariga ega bo‘lgani kabi, milliy g‘oya, milliy mafkura sohasida ham qat’iy tamoyillariga ega bo‘lishi shart.

IV. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI

1. Mohiyat-mazmuni

O‘zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalari tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi:

— O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

— xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma‘naviyati, an‘ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi;

— adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalqimizning ishonch va e‘tiqodini aks ettiradi;

— yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi;

— jamiyat a‘zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

— millati, tili va dinidan qat‘i nazar, mamlatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalari sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi;

— jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

Bu — O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining "Vatanim menga nima berdi" deb emas, balki "Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman" degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi demakdir.

Milliy mafkura haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. Asosiy Qonunimizning 12-moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan:

"O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas".

Bu qoida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan

birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen — ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi. Milliy istiqlol mafkurasi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning — butun xalqimizning quyidagi umumiy manfaatlarini ifodalaydi:

— mamlakatning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, sarhadlar daxlsizligi;

— yurtning tinchligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion tahdidlardan muhofaza etilishi;

— mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlash;

— har bir oila va butun xalqning farovonligi;

— jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillarining amal qilishi.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

— inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi;

— millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqod manbai bo'lishi;

— har qanday ilg‘or g‘oyani o‘ziga singdirishi va har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olishi;

— zamon va davr o‘zgarishlariga qarab, o‘zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi.

Milliy istiqlol mafkurasi ana shu talablarga javob bergan taqdirdagina quyidagi asosiy vazifalarni bajara oladi:

— mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirish;

— hur fikrli, mutelik va jur‘atsizlikdan xoli bo‘lgan, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalash;

— odamlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, iymon-e‘tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma‘naviy muhit yaratish;

— vatandoshlarimiz tafakkurida o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish;

— xalqimizga xos bo‘lgan iymon-e‘tiqod, insofdiyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirish.

— mamlakatimizning ko‘p millatli xalqi ongi va qalbida “O‘zbekiston — yagona Vatan” degan tushunchani shakllantirish va rivojlantirish.

Bu vazifalarning bajarilishi fuqarolarimizni hozirgi shiddatkor hayot talablariga javob bera

oladigan shaxslarga, yangi jamiyat qurilishining faol ishtirokchilariga aylantirishga xizmat qiladi.

2. Tarixiy va falsafiy asoslari

Milliy istiqlol mafkurasining ma'no-mazmunini belgilaydigan asoslardan biri — bu xalqimizning qadimiy va boy tarixidir. Chunki tarix — buyuk murabbiy. U insonga ibratli xulosalar beribgina qolmasdan, ba'zan achchiq saboqlarni ham tan olishga undaydi.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanzur yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, "Alpomish", "Shashmaqom" kabi san'at durdonalari, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir.

Mafkuramizning **falsafiy asosini**, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo'lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning yaralishi va

takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik, komillik g'oyalari ham bugungi mafkuramiz shakllanishiga ta'sir o'tkazadi.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari, Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari va Beruniyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, Forobiyning adolatli jamiyat va Ibn Sinoning dualizm ta'limoti, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushohadalari, asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati ham milliy g'oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlaridir.

Istiqlol mafkurasining falsafasi, uning ma'no-mazmuni, asosiy g'oya va tamoyillari milliy davlatchiligimizni qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo'lini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan Islom Karimov asarlarida chuqur ifodasini topgan. Ularda mamlakatimizning rivojlanish yo'li, uning o'ziga xos xususiyat va qonuniyatlarining amalga oshish dialektikasi ilmiy nuqtai nazardan aniq belgilab berilgan.

Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asosi, shuningdek, qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa maktablarning merosiga ham tayanadi.

Xususan, Sokrat, Platon, Aristotel singari mutafakkirlarning asrlar davomida o'z qadrgimmatini yo'qotmay kelayotgan fikrlari, jahon falsafasining o'rta asrlar va yangi zamondagi namoyandalari qarashlari ham milliy istiqlol mafkurasini tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga

hayotiy ruh bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning falsafiy hikmatlari, Platonning "G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" to'g'risidagi ta'limoti, Gegel dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g'oyalar ham milliy istiqlol mafkurasining umuminsoniy asoslaridir.

3. Milliy va umuminsoniy tamoyillari

Istiqlol mafkurasida xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi **milliy xususiyatlarni** zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

— xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;

— jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;

— ota-ona, mahalla-ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;

— millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;

— kattaga — hurmat va kichikka — izzat;

— mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiylikining ramzi — ayol zotiga ehtirom;

— sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

— halollik, mehr-oqibat va hokazo.

Istiqlol mafkurasida quyidagi **umumbashariy qadriyatlarni** e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

— qonun ustuvorligi;

— inson haq-huquqlari va hurfiylik;

- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- diniy bag‘rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma‘rifatparvarlik;
- o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va hokazo.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy asoslari

Milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir oila va fuqaroning munosib turmush darajasini ta‘minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va Vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi.

Mulkdor odamning jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma‘naviy fazilatlar bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o‘z qo‘lida degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi. “Har bir fuqaroning farovonligi — butun jamiyatning farovonligidir” g‘oyasini ilgari suradi.

5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi

O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi — ozod va obod Vatan, erkin va

farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

6. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Vatan ravnaqi

Vatan — insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan — ota-bobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq bo'ladi. Tog'dek tayanchi — Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi.

Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'lolmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o'zida aks ettirishga kuch-qudrat manbaiga aylanadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi.

Bu o'zgarishlar jarayonining ustuvor xususiyati — xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyodkorlik salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yoshlarimizni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yurt tinchligi

Yurt tinchligi — bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi — barqaror taraqqiyot garovi.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi.

Lekin, afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo'lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari, nafs balosi yo'lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg'inlar domiga tortib keladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o'n besh mingdan ziyod katta-kichik urushlarni boshdan kechirganini ko'ramiz. Bu — urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir.

Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi.

Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan.

Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi. Yigirma yildan buyon o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg'oniston — buning yaqqol dalili.

Bu mamlakat hududining xavf-xatar o'chog'iga aylanib qolgani yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikka, taraqqiyot yo'lidagi ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Bu — dunyoda yalpi tinchlik va barqarorlikka erishish uchun, avvalo, har bir mamlakat va har bir mintaqada tinchlik-barqarorlikni ta'minlash zarur, degan qarashning bugungi kunda g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy boylik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasllar ham ko'p mehnat va mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritilgan mana shu bebaho ne'matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqbol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib bo'la oladi.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi — yurt tinchligini

saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalq farovonligi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi — xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya'ni islohot — islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab yetishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, yerga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farovon turmush asosi — erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdir.

Shuning uchun xalqimizda mulkka egalik hissini tarbiyalash, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy mafkuramiz vazifalariga kiradi.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va

bunyodkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy zaminidir.

O'zbekiston xalqidek mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan xalq o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat e'tibori bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

Komil inson

Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifoda topgan.

Hazrat Navoiyning “Kamol et kasbkim, olam uyidin Senga farz o’lmag’ay g’amnok chiqmoq, Jahondin notamom o’tmak biaynih, Erur hammomdin nopok chiqmoq” degan fikrlari har bir inson komillikni o’ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Erkin fuqarolik jamiyatini ma’naviy barkamol, ezgu g’oyalari hayotiy e’tiqodi bo’lgan insonlarga buniyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog’lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko’tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda Sog’lom avlod harakatining keng tus olgani, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug’vor maqsadni amalga oshirish yo’lidagi muhim qadamlardir.

Ijtimoiy hamkorlik

Insoniyat XX asrda amalga oshirayotgan eng muhim g’oyalardan biri — jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o’rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir.

Ijtimoiy hamkorlik — murosas falsafasi bo’lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo’lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo’lidagi hamjihatligini ta’minlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik va totuvlikning,

barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi.

Jamiyatni sun'iy ravishda bo'lib, turli qarama-qarshiliklarni mutlaqlashtiradigan ta'limotlardan farqli o'laroq, ijtimoiy hamkorlik g'oyasi bu tabiiy rang-baranglikni milliy taraqqiyot manfaatlariga bo'ysundiradi.

Bu qanday shakllarda amalga oshiriladi?

Birinchidan, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu g'oyalar bilan uyg'unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruratiga aylanadi.

Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va e'tiqodidan qat'i nazar, jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshishi uchun o'zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Ijtimoiy hamkorlik masalasini atroflicha o'rgangan aksariyat G'arb mamlakatlarida uning tamoyillari jamiyat hayotiga oqilona tatbiq etilib, taraqqiyotning barcha sohalarida salmoqli natijalar bermoqda.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Aksincha, ana shu hamkorlikning izdan chiqishi yoki

munosabatlarning yomonlashuvi bu barqarorlikning buzilishiga olib keladi, ijtimoiy beqarorlik, siyosiy boshboshdoqlik va milliy parokandalikni keltirib chiqaradi.

Binobarin, ijtimoiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyish va rivojlantirish hammaning, birinchi galda, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyatning ilgʻor vakillari boʻlgan ziyolilar zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy hamkorlik muhitiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan har qanday xavf-xatarning oldini olish, ularni bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni koʻrish kerak.

Millatlararo totuvlik

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Har bir millat — Yaratganning moʻʼjizasidir. Bu —olamdagi tabiiy rang-baranglik bilan jamiyatdagi milliy oʻziga xoslik dialektikasini ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik gʻoyasi — umumbashariy qadriyat boʻlib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati boʻlib xizmat qiladi.

Bu gʻoya — bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yoʻlida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, doʻstlik va hamjihatlikning maʼnaviy asosidir.

Bu gʻoya — har bir millat vakilining isteʼdodi va salohiyatini toʻla roʻyobga chiqarish uchun

sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Aksincha, bu g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illat, bu — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik)

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi — xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin,

bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Hozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal-azaldan diyorimizda islom, nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda o'ndan ziyod konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi

uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo‘lib, ulug‘ va mushtarak g‘oyalar yo‘lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

V. MILLIY ISTIQLOL MAFKURASINI XALQIMIZ QALBI VA ONGIGA SINGDIRISH

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ta’lim va tarbiya. Milliy istiqlol mafkurasini yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta’lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalarni nazarda tutish lozim:

— ta’lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishning differensial pedagogik-psixologik dasturini yaratish;

— Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchi-talabalar ongida milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

— o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini teran aks ettirish;

— maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish;

— pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e‘tibor qaratish zarur:

— aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma‘lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning samarali yo‘llarini keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etish;

— milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an‘analar va intellektual qadriyatlarining mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o‘rni va ta‘siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

— mafkuralar kurashining jahonshumul jaryonini o‘rganish, uning monitoringi, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;

— mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy-ma‘rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga

singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog'lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, odamlarga ruhiy-ma'naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargohlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar uyushtirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo'llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san'at, chinakam badiiy go'zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo'lmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g'oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning yetakchi o'rinni egallab olishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot va san'at. Bu sohada ijod ahlining g'oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo'naltirish ustuvor yo'nalish bo'lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga har tomonlama rag'batlantirish. Yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish.

Milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib berishga ayniqsa e'tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo'lgan bu sohada, avvalo, din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g'oyalari yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish — bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni **harbiy-vatanparvarlik** ruhida tarbiyalashda sportning o'rni beqiyosdir.

Sog'lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo'lgan xalq albatta o'zining buyuk kelajagini barpo etadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sportning

ommaviylikini ta'minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalari singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim.

Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Oila. Oila — mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila — jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit — sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash — milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi.

Mahalla. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla — avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarini kamol toptirishda mahallaning o'rni beqiyos.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o'tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'ziga xos maskan bo'lib hisoblanadi.

Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do'stlik va hamjihatlik, o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga

o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida sog'lom ma'naviy muhitni vujudga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Siyosiy partiyalar o'z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g'oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistondagi har bir partiya o'z dasturiy qarash va maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega.

Har bir partiyaning o'z dasturiy g'oyalari hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki xalq manfaatlari, istiqlol g'oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko'rsatayotgan **nodavlat tashkilotlar** mafkuraviy jarayonlarda ham faol ishtirok etishi lozim.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bu boradagi amaliy ishlarni muvofiqlashtirib borishi, Inson huquqlari milliy markazi, Ma'rifatparvarlar jamiyati, Oila markazi, Faylasuflar milliy jamiyati, Ijtimoiy fikr markazi kabi tashkilotlar o'z faoliyatini milliy istiqlol mafkurasini bilan uyg'un holda tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma'rifiy jihatdan ko'mak beradigan "Sog'lom avlod", "Kamolot", "Umid", "Ulug'bek", "Oltin

meros”, “Amir Temur”, “Imom Buxoriy”, “Ustoz”, “Mahalla” jamg‘armalari va boshqa jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanishga jiddiy e’tibor qaratish zarur.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. “To‘rtinchi hokimiyat” hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim.

XULOSA

Milliy istiqlol mafkurasi dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab borayotgan mamlakatimiz xalqining istiqlol yillarida orttirgan tajribalari, bosib o‘tgan murakkab yo‘li, milliy tafakkuri va ma‘naviyatidagi yuksalishlarning mantiqiy natijasi, xalq irodasining mujassam ifodasi sifatida shakllanadi.

Bu — uzoq davom etadigan jarayon. Milliy istiqlol mafkurasi xalqning, jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsad-muddaolari amalga osha borgan, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi.

Istiqlol mafkurasining ilg‘or g‘oyalari asosida har bir avlod dunyoga o‘z so‘zini aytadi, tariximiz kitobida o‘zining shonli sahifasini yaratadi.

Bu mafkura erkin fuqarolik jamiyati, farovon hayot barpo etishga azmu qaror qilgan, bu yo‘lda sobitqadamlik bilan olg‘a borayotgan xalq mafkurasidir. U hayotbaxsh kuchi, jozibasi bilan jamiyatning barcha qatlamlari qalbi va ongiga ta‘sir etadi.

Mafkura — inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o‘zgartiradigan kuchli vosita. Uning g‘oyalari xalqning ishonch-e‘tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansagina yetarlicha samara

beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, fuqarolarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda, sabr-toqat bilan, ma'rifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqozo etiladi.

Bu borada kampaniyabozlik, kimo'zarga musobaqa uyushtirish, ma'muriy tazyiq o'tkazish usuli kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa, milliy istiqlol mafkurasi yuqoridan turib joriy etilishi yoki biron-bir partiya, harakat va guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanishi mumkin emas.

Milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, jamiyat hayotining ma'naviy mezoni bo'lib, tafakkur o'zgarishi, odamlar ongida yangicha dunyoqarashning shakllanishi va ijtimoiy fikr rivoji uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 yil.

2. Qur'oni karim. Toshkent, "Cho'lpon" nashriyoti, 1993 yil.

3. *Imom Buxoriy*. "Hadis". 4 jildlik. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992 yil.

4. *Imom Termiziy*. "Sahihi Termiziy". Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1993 yil.

5. *Abu Nasr Forobiy*. "Fozil odamlar shahri". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.

6. *Abu Rayhon Beruniy*. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent, 1968 yil.

7. *Amir Temur*. "Temur tuzuklari". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996 yil.

8. *Mirzo Ulug'bek*. "To'rt ulus tarixi". Toshkent, 1996 yil.

9. *Alisher Navoiy*. "Mahbub ul-qulub". Toshkent, 1987 yil.

10. *Nizomiddin Shomiy*. "Zafarnoma". Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1996 yil.

11. *Zahiriddin Muhammad Bobur*. "Boburnoma". Toshkent, "Cho'lpon" nashriyoti, 1989 yil.

12. *Abdulla Avloniy*. "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1994 yil.

13. *Mahmudxo'ja Behbudiy*. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Ma'naviyat" nashriyoti, 2000 yil.

14. *Islom Karimov*. “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”, 1-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.

15. *Islom Karimov*. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.

16. *Islom Karimov*. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. 3-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.

17. *Islom Karimov*. “Bunyodkorlik yo‘lidan”. 4-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996 yil.

18. *Islom Karimov*. “Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi”. 5-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997 yil.

19. *Islom Karimov*. “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997 yil.

20. *Islom Karimov*. “Ma‘naviy yuksalish yo‘lida”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998 yil.

21. *Islom Karimov*. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin”. “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga javoblar. 1998 yil, 2-son.

22. *Islom Karimov*. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. “Mu-loqot” jurnali, 1998 yil, 5-son.

23. *Islom Karimov*. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan”. 6-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1998 yil.

24. *Islom Karimov*. “Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. 7-jild. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999 yil.

25. *Islom Karimov*. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz”. 8-jild, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2000 yil.

26. *Islom Karimov*. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoq-da”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999 yil.

27. *Islom Karimov*. “O‘zbekiston”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999 yil.

28. *Islom Karimov*. "Milliy istiqlol mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir": "Fidokor" gazetası muxbiri savollariga javoblar. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2000 yil.

29. BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi. // "Inson huquqlari: o'quv qo'llanmasi". Toshkent, "Adolat" nashriyoti, 1998 yil.

30. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1999 yil.

31. "Sog'lom avlod — bizning kelajagimiz". Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2000 yil.

32. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1997 yil.

33. "Ma'naviyat yulduzlari". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1999 yil.

34. "Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni". Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1998 yil.

35. "Jaloliddin Manguberdi". Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1999 yil.

36. "Qaltis savollarga xolis javoblar". (Din va dunyoviy muammolarga doir) "Tafakkur" jurnali, 1999 yil. 3-son.

37. "Xalq, milliy mafkura va ziyoli mas'uliyati". "Tafakkur" jurnali, 1999 yil. 2-son.

38. "Geopolitika i mirovoye razvitiye". Moskva, 1995 yil.

39. *Gegel*. "Filosofiya prava". Moskva, "Misl" nashriyoti, 1997 yil.

40. *Konfutsiy*. "Uroki mudrosti". Moskva, "Nauka", 1998 yil.

41. *N. Toyndi*. "Postijeniye istorii". Moskva, "Nauka", 1992 yil.

42. *A. Shopengauer*. "Svoboda voli i npravstvennost". Moskva, "Respublika" nashriyoti, 1992 yil.

43. *K. Yaspers*. "Smisl i naznacheniiye istorii". Moskva. "Politizdat" nashriyoti, 1991 yil.

44. *Z. Freyd*. "Vvedeniye v psixoanaliz". Moskva, 1991 yil.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	5
------------------	---

I. Milliy gʻoya va mafkuralar tarixidan

1. Gʻoya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyati.	9
2. Tarixiy shakllari va koʻrinishlari.	12
✓3. Xalqlar va davlatlar taqdiriga taʼsiri.	14
4. Falsafiy, dunyoviy va diniy ildizlari	16
5. Fikrlar va qarashlar rang-barangligi	19
6. Insoniyat tarixida mafkuradan koʻzlangan maqsadlar.	20

II. Hozirgi zamonda inson qalbi va ongi uchun kurash

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.	22
2. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi.	23
3. Geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat.	24
4. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan boʻlib olishga urinishlar.	25
5. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mafkuraviy jarayonlar.	26

III. Oʻzbekiston taraqqiyoti va mafkuraviy muammolar

1. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?	28
2. Taraqqiyotning oʻzbek modeli.	36
3. Oʻzbekistonning jahondagi oʻrni va nufuzi.	38
4. Mafkuraviy muammolar: gʻoyaviy boʻshliq va zararli gʻoyalarning jamiyatimizga taʼsiri.	39

IV. Milliy istiqlol mafkurasi

1. Mohiyat-mazmuni.	43
2. Tarixiy va falsafiy asoslari.	47

3. Milliy va umuminsoniy tamoyillari.	49
4. Ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.	50
5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi.	50
6. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari:	
a) Vatan ravnaqi	51
b) Yurt tinchligi	53
v) Xalq farovonligi	55
g) Komil inson	56
d) Ijtimoiy hamkorlik	57
j) Millatlararo totuvlik	59
z) Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik).	60

**V. Milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi
va ongiga singdirish**

1. Ta'lim va tarbiya.	63
2. Fan va ilmiy muassasalar	64
3. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar	64
4. Adabiyot va san'at.	65
5. Din.	66
6. Jismoniy tarbiya va sport.	66
7. Urf-odat, marosim va bayramlar.	67
7. Oila.	67
8. Mahalla.	68
9. Mehnat jamoalari.	68
10. Siyosiy partiyalar.	69
11. Nodavlat tashkilotlari.	69
12. Ommaviy axborot vositalari.	70
Xulosa	71

Muhtaram o'quvchi!

Qo'lingizdagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasi maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari, olim va mutaxassislar, shuningdek, boshqa ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlariga ma'ruza va suhbat matnlari, darslik va qo'llanmalar tayyorlash, dasturlar tuzish uchun asosiy manba sifatida tavsiya etilmoqda.

Mazkur risola Prezident Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlari, chiqishlaridagi ma'naviy-ma'rifiy mavzuda bildirgan fikrlari asosida tuzilgan.

Unda milliy g'oya va maskura tushunchalari, ularning xalqlar va davlatlar tarixiga ta'siri, globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi sharoitda maskuraviy siyosatning o'rni, O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi, uning asosiy tamoyillarini xalqimiz, avvalo, yosh avlod qalbi va ongiga singdirish kabi masalalar muxtasar tarzda bayon etilgan.

Ushbu risolada milliy istiqlol g'oyasining barcha ilmiy-nazariy muammolarini batafsil yoritish maqsadi qo'yilmagan. Binobarin, mazkur masalalarni har tomonlama chuqur o'rganish, ularning ma'no-mazmunini keng ochib berish, bu borada ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borish, maxsus darslik va qo'llanmalar yaratish — ijtimoiy fan sohasi mutaxassislarining vazifasidir.

Risola O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlandi.

**MILLIY ISTIQLOL G' OYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR**

Nashr uchun mas'ul K. BO'RONOV
Rassom T. QANOATOV
Texnik muharrir T. XARITONOVA
Musahhihlar Sh. ORIPOVA, N. UMAROVA
Kompyuterda tayyorlovchi A. SOLIHOV

Terishga berildi 15.01.2001. Bosishga ruxsat etildi 16.03.2001.
Qog'oz formati 84x108¹/₃₂. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma t. 4,2. Nashr bosma t. 2,86. Qo'shimcha tiraj 10000.
Buyurtma № 52.

“O'zbekiston” nashriyoti, 700129, Toshkent, Navoiy, 30.
Nashr № 16-2001.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining
I-bosmaxonasida bosildi.
700002. Toshkent, Sag'bon ko'chasi, I-boshi berk ko'cha, 2.

M 50 **Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunca va tamoyillar.** —
T.: "O'zbekiston", 2001. — 80 b.
ISBN 5-640-02889-0

BBK 66.3(5U)

M⁰³⁰¹⁰²⁰⁰⁰⁰⁻¹⁴
M 351 (04) 2001 2001

192 =

009914 /
16